

2 Mavzu: Menejment qonunlari va tamoyillari

Reja:

- 1 Menejment qonunlari.
- 2 Umumiy iqtisodiy va falsafiy qonunlar.
- 3 Menejmentning asosiy tamoyillari.

Kalit so'zlar: Menejment qonunlari, Iqtisodiy qonunlar, umumiy falsafiy qonunlar, bozorni tartibga solishning umumiy qonunlari. Menejment tamoyillari.

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.
2. Umrzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b.
3. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 208 b.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07-353012-3. -New York, 2008. -529 p.
2. Richard L.Daft. Management. 12th ed. ISBN 978-1-285-86198-2. -Boston, 2016. - 798 p.
3. Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. -Texas, 2016. - 547 p.
4. Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A.Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 9780-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni riojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.

Internet saytlari

5. www.samqxi.uz - Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
6. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
7. www.uzreport.com - Axborot agentligi.
8. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

1. Menejment qonunlari.

Menejment jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Nazariy jixatdan tushunmay va asoslanmagan holda birorta yirik amaliy masala hal etilishi mumkin emas. Nazariya yangilanishning muhim usulidir. Fan esa voqyelik xaqida ob'yektiv bilimlarni o'rganish va tartibga solishga qaratilgandir. Bilimlarni tartibga solinishi qonunlarda ifodalanadi.

Qonun - falsafiy kategoriya bo'lib, borliq voqyealarning barqaror, takrorlanuvchan aloqasi va munosabatini, xodisalar yuz berishining aniq tartibda bo'lishiga olib keluvchi tomonlarini aks ettiradi. Qonunlarni bilish rivojlanishning ob'yektiv yo'nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodiyotni boshqarish qonunlarni bilish, ularni amalda ustalik bilan qo'llay olishga asoslanishi kerak.

Umumiy falsafiy qonunlar materiya, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat, sabab, oqibat, shakl, mazmun kabi kategoriyalar vositasida ifodalanadi. Iqtisodiy nazariya qonunlari iqtisodiy kategoriyalar vositasida (mulk, ishlab chiqarish, talab, taklif, taqsimt, ayirboshlash, qiymat, narx, foyda, tovar, pul, muvozanatlanish) foydalanadi.

Iqtisodiyotni boshqarishda qonunlardan qanchalik to'liq va izchil foydalanilsa, mehnat sarfi shunchalik samarali bo'ladi. Va, aksincha, boshqarish jarayonida iqtisodiy qonunlarni hisobga olmaslik jamiyat uchun kutilmagan, salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli boshqaruv qonunlarini o'rganishda faqat amal qilishni emas, balki boshqaruv jarayonida ongli ravishda qo'llanilishni ham ko'zda tutish lozim. Boshqaruv qonunlaridan ongli ravishda foydalanishning ko'p jixatdan ularni o'rganish bilan bog'liq. Qonunlar qanchalik chuqur o'rganilsa, ulardan amalda to'g'ri foydalanish imkoniyatlari ortadi.

Lekin boshqaruv qonunlarini bilish ularni aniq amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash uchun kafolat bo'lolmaydi. Qonunlarni bilishda nazariya amaliyotdan ajralib qolishi foydasizdir. Demak, qonunlardan foydalanish ularni bilish, tushunish, amalda o'z vaqtida va to'g'ri qo'llay olishga bog'liq ekan. Bu boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omildir.

- mavjud qonunlarni, ularning u yoki bu bosqichda namoyon bo'lish xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqur va har tomonlama bilish;
- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularni hal etish yo'llarini aniqlash;
- xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish va unga mos shakl va uslublarini qo'llash.

2. Umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlar.

Umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlardan to'g'ri foydalanilgan holdagina iqtisodiyotni muvaffaqiyatli boshqarish mumkin. Umumiy falsafiy qonunlar ta'siri ijtimoiy amaliyotda iqtisodiy rivojlanishi qonuniyatlari va yo'nalishlarini aniqlash shaklida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishni boshqarishdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlar fani umumiy falsafiy, ham iqtisodiy nazariya umumiy qonunlarga bo'ysunadi.

Umumiy falsafiy qonunlar bu avvalo quyidagi materialistik dialektika qonunlaridir:

1. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni narsa va xodisalar miqdor va sifat jixatlarini o'zaro bog'liqligi va ta'sirini tavsiflaydi.
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni xarakatlantiruvchi kuch, o'z-o'zidan harakat qilib amalga oshuvchi rivojlanish manbaini ko'rsatadi.
3. inkorni inkor etish qonuni cheksiz rivojlanish va takomillashish yo'nalishini belgilaydi. Eskirgan narsani inkor etmay, rivojlanishga erishib bo'lmaydi, chunki inkor natijasida yangi narsa uchun joy yaratiladi. Shuning uchun inkor yangi bilan eski bog'langan vaqtdir.

Bozor munosabatlari sharoitida menejment eski buyruqbozlik shakl va uslublarni inkor etib, ular ilmiy asoslangan yangilari bilan almashtiriladi.

4. ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongdan birlamchi ekanligini belgilovchi qonun mehnat jamoasi, alohida mehnatkash hayotining birlamchi ekanligini ko'rsatdi. Boshqaruvni umumlashtirish zarur bo'lgan ijtimoiy, jamoa, shaxsiy manfaatlarni aniqlashda bu qonun amal qilishini hisobga olmay amalga oshirib bo'lmaydi.
5. Ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga nisbatan belgilovchi ekanligini ifodalovchi qonun boshqaruv uchun katta ahamiyatga ega. Aynan boshqaruv vositasida ishlab chiqarishning ikki tomoni ishlab chiqaruvchi kuchlar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar aloqasi yuz beradi.

Falsafaning yuqorida sanab o'tilgan va boshqa qonunlari menejment metodologiyasi asosini tashkil etadi. Ular menejmentda markaziy kategoriyalar bo'lib, uning konsepsiyasi birligini mustahkamlash, barcha kategoriyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon yaratadi.

Iqtisodiyotni boshqarish tizimida iqtisodiy qonunlar yetakchilik qiladi. Insonlar mehnatini erkin birlashtiruvchi va tartibga soluvchi boshqarish tizimi maqsadlarni aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo'llarini izlash, ular erishilgan natijalariga baho berish, iqtisodiy samaradorligida aks etuvchi iqtisodiy qonunlar talablari aniq hisobga olish lozim.

1. Jamiyat ehtiyojlarini mumkin qadar kam resurslar sarflab iloji boricha to'liq qondirish qonuni. Jamiyatdagi barcha iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, ularni amalga oshirish qonunlari bu qonunga amal qiladi, chunki u quyidagilarni ifodalaydi:

- ishlab chiqarishning ob'yektiv yo'nalishi, uning xalq farovonligini oshirish, shaxsiy har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligini;
- insonlar xo'jalik faoliyatining asosiy sabablari, umumxalq iqtisodiy manfaatlarining yetakchiligini;
- ishlab chiqarish samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini.

Bozor munosabatlari sharoitida bu qonunning mazmuni har tomonlama boyib boradi.

2. Qiymat qonuni yoki narx qonuni. Tovarlarning pulda ifodalangan qiymati narx deb ataladi. Narx esa talab va taklifga bog'liq ravishda aniqlanadi. Narx bozor barametridir: agar talab va narx yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish kengayadi. Talab va narx pasayganda ishlab chiqarish qisqaradi. Talab xajmi va tarkibi taklif xajmi va tarkibiga teng bo'lgan xoldagi narx muvozanat narxi deyiladi.

Ishlab chiqariladigan har bir tovar turi, xajmi ularga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoatlarga teng bo'lishi,

ya'ni to'lov qobiliyatiga ega talabga teng bo'lishi kerak.

3. Talab qonuni. Uning mazmuni shundan iboratki narx qancha yuqori bo'lsa, talab shunchalik kam bo'ladi. Talab xaridorning to'lov qobiliyatini ifodalaydi. Bunda talab elastikligi koeffitsiyenti qanday aniqlanishini ko'rib chiqamiz:

$$K_{\text{talab elas.}} = \frac{\text{talab hajmi o'sishi, \%}}{\text{narxlarning pasayishi, \%}}$$

4. Taklif qonuni. U narx ortishi bilan taklif ortishini ifodalaydi. Taklif - bu tovar va xizmatlarning narxdagi qiymatidir. Bunda taklif elastikligi koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$K_{\text{taklif. elas.}} = \frac{\text{taklif o'sishi xajmi, \%}}{\text{narxlar o'sishi, \%}} ; \text{-----}$$

5. Raqobat qonunining mohiyati shundan iboratki, ya'ni raqobat sharoitida zarar

keltirmay eng yaxshi natijaga ega bo'lib bo'lmaydi, chunki barcha tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadi oshishi tartibini o'rnatib bo'lmaydi.

6. Iste'molchi nuqtai nazaridan eng so'nggi naflilik qonuni. Naflilik - tovar va xizmatlar iste'molidan qoniqishni bildiradi. Umumiy naflilik ma'lum tovar va xizmat birligidan qoniqishni bildiradi; so'nggi naflilik - shu tovar va xizmatning yana sotib olishdan qoniqishni bildiradi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda iqtisodiy qonunlardan foydalanish imkoniyatlari har tomonlama kengayib boradi.

3. Menejmentning asosiy tamoyillari.

Tamoyil - bu faoliyat yuritish, xalqning asosiy qoidasi, yetakchi g'oyadir. Ilmiy adabiyotlarda odatda boshqaruv tamoyillari deganda iqtisodiyotga rahbarlik qilishda asoslaniladigan asosiy qoida, yo'l-yo'riq, xulq me'yorlari tushuniladi. Boshqaruv tamoyillari iqtisodiyot qonunlari ta'siri natijasida boshqaruv usullariga bog'liq xodisalar mohiyatini aks ettiradi. Boshqaruv mexanizmi sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:

qonunlar — tamoyillar usullar ustublar.

Boshqaruv tamoyillari o'zaro bog'liq va birgalikda qo'llanilishi lozim.

Asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1. Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyili. Yakkaboshchilik tamoyili bevosita ishlab chiqarishda ishlab chiqarish personali a'zolarining yagona rahbar buyruqlariga qat'iy bo'ysunushini talab qiladi. Yuqori darajadagi rahbar quyi bo'g'in rahbari vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etmasligi lozim. Bu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti har bir ijrochining huquq, burch, majburiyatlarini qat'iy belgilab qo'yishdir. Yagona boshchilik kollegiallik, qabul qilinadigan qarorlar oshkaraligi bilan qo'shib olib borilishi kerak. Kollegiallik intizom, rahbar, yagona shaxs irodasigaso'zsiz bo'ysunush bilan birga amalga oshishi kerak. Demokratiya, oshkoralik har bir kishiga o'z fuqarolik qarashlarini namoyon qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashish uchun imkon yaratadi.

2. Ilmiylik tamoyili. Boshqaruv tamoyillari orasida valyutarizmni inkor qiluvchi har bir rahbar iqtisodiy qonunlar, jamiyat rivojlanishining ob'yektiv yo'nalishlari, bu sohada milliy va chet el tajribasini qo'llashini taqozo qiluvchi o'rin egallaydi.

3. Rejalilik tamoyili. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish - biznes va strategik rejasini tuzish - iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishning muhim shartidir. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo'lj allangan yo'nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir. U iqtisodiy qonun, ishlab chiqarishning hozirgi xolatini ilmiy taxlil etish, ehtiyotlarni istiqbolini aniqlash texnikaviy va tashkiliy qarorlarni zabul qilish asosida amlaga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik rejalashtirish - u yoki bu tarmoq rivojlanishining maqbul nisbatlarini, eng muhimi resurslardan samarali foydalanish yo'llarini belgilovchi iqtisodiy rivojlanish parametrlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

4. Boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning uch shakli mavjud: xususiy, jamoa, davlat boshqaruvi. Boshqaruvning xususiy shaklida mulkdor yakka o'zi qaror qabul qiladi va butun ish uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv xususiy shaklining ijobiy tomoni mulk egasi ishlar borishini o'zi to'liq nazorat qilish imkoniyatiga egaligi kamchiligini esarsoyaning uncha katta bo'lmasligi va bir kishi boshqaruvning turli vazifalarini bajarishiga majburlidir. Mulkdor boshqaruvning barcha vazifalarini amalga oshirishi: rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, yo'qatosh zarar va boshqalarga shaxsan bo'lishdadir. Kuchli raqobat sharoitida mulkdor sinmasligi uchun doimo o'z bilimlarini

ko'paytirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib, ya'ni ishchilarga ta'sir etish yo'llarini bozorda mavjud xolatga mos ravishda o'zgartirib borishi kerak.

Boshqaruvning jamoa shaklida ikki yoki undan ko'p jismoniy va huquqiy shaxslar boshqaruv qarorlarini birgalikda qabul qiladilar va korxonalar yoki aksionerlar jamiyati faoliyati uchun javobgar bo'ladilar. Sherikchilik nisbatan malakali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruvning xususiy shakli kamchiliklarini bartaraf etishga imkon yaratadi. Boshqaruvning jamoa shaklining afzalligi sheriklar aksiya sotish yo'li bilan qo'shimcha sarmoya jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Boshqaruvning jamoa shakli direktorlar kengashi tomonidan amalga oshirilib, u asosiy boshqaruv siyosatini va boshqaruvning majud vaziyatga mos iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruvchilik, ijtimoiy-psixologik, huquqiy usullarini tanlaydilar. Boshqaruvning jamoa shaklining asosiy kamchiligi barcha sheriklar - aksiya egalari boshqaruvda va korxonalar faoliyatini nazorat qilishda qatnasha olmaydi. Uning yana bir kamchiligi - korporasiya, aksionerlar jamiyati yoki korxonalar aksionerlaridan «ikki yoqlama» soliq olinishidir, chunki korxonalar foydadan. Aksionerlar esa qo'shimcha ravishda dividenddan soliq to'laydilar.

Davlat boshqaruv shakli davlat yoki maxalliy mulk bo'lgan korxonalarda amalga oshiriladi. Davlat bu korxonalar faoliyati uchun to'liq javob beradi.

5. Kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyili mahim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat'iy talablar qo'yadi, ularning ishbilarmonlik sifatleri, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarni belgilaydi.

6. Agentlar mustaqillik va erkinligi tamoyili. Bozorda agentlar faoliyati iqtisodiy javobgarlik bilan birgalikda amalga oshishi kerak.

7. Shaxsiy tashabbus tamoyili. Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat qiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak.

8. Javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili. Tadbirkor o'z faoliyati uchun javobgar bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik ham hisobga olinishi, ya'ni tadbirkorning o'z huquq va majburiyatlari bo'lishi kerak.

Qonun va prinsiplarda menejmentning ob'yekti va sub'yekti o'rtasidagi ob'yektiv, muhim, takrorlanadigan, nisbiy, turg'un, aniq, muayyanlik va mohiyat bilan umumiy bog'lanish va aloqadorlik o'z ifodasini topadi. Bu umumiy bog'lanish va aloqadorliklar ma'lum shart-sharoitlarda voqyealar rivojining yo'nalishi va xususiyatini belgilab beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, menejmentning qonun-qoidalari va tamoyillari faqat hamma uchun majburiy bo'lgan me'yor, qoida, rasm-rusum, moyilliklar orqali ta'riflanishi va ifodalanishi mumkin (2.1-jadval).

Menejment tamoyillari

№	Tamoyillar	Izoh
1.	Demokratiyalash	* Ishlarni ommani boshqarishga keng ko'lamda jalb qilish, kengash va maslahatlar orqali bajarilishini talab qiladi.
2.	Iyerarxiya	* Boshqarishning pog'onaligiga asoslanadi. Bu bir tomondan, markaziy, ikkinchi tomondan esa, viloyat shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati hamda boshqaruv idoralarining vazifalarini aniq belgilanishini talab qiladi. Samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, boshqaruv jarayoni shunchalik chigallashadi.
3.	Rejalashtirish	* Boshqarish bo'g'inlari o'rtasidagi taraqqiyot nisbatlarini aniqlaydi, shartnomalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi.
4.	Yakkahokimlik	* Boshqarish tayinlangan shaxs tomonidan bajarilib, unga boshqariladigan ob'yekt, uning mol-mulki, pul mablag'lari ishonib topshiriladi. Yakkahokimlik boshqarishda qat'iy tartib va mehnat intizomini ta'minlaydi. Bunda "Ko'plashib muhokama qilmoq keragu, lekin mas'uliyat yakka bir kishida bo'lmog'i kerak" degan prinsipga amal qiladi.
5.	Ilmiylik	* Menejrlardan chuqur bilimni, o'z sohasi bo'yicha iqtisod, mantiq, ruhiyat, matematika, chet tili, texnologiya kabi fanlarni yaxshi bilishni talab qiladi. Shu bilan birga, uning saviyasi tashkilotchi, tashabbuskor, g'oyalarga boy, izlanuvchan, bozor konyukturasini yaxshi biladigan, tavakkal qilishdan qo'rqmaydigan mutaxassis bo'lishini ham
6.	Qayta aloqalar	* Topshiriqni berishda "tushundirlarmi?" deb so'rash yetarli emas. Bunday savloga javobgar shaxsdan tasdiqlovchi javobni, topshiriqni to'g'ri tushunganligini
7.	Javobgarlik	* Bu eng avvalo, boshqaruvchilarning javobgarligini nazarda tutadi. Bajaruvchanlik madaniyati past, mas'uliyatsiz rahbar korxonalar va xodimlarning sho'ri. Menejer uchun huquqiy javobgarlik o'ta yuqori bo'lishi kerak.

Shunday qilib, boshqarish prinsipi deganda boshqaruv organlari va rahbarlari faoliyatining negizini tashkil etuvchi asosiy qonun-qoidalar tushuniladi. Boshqarish prinsiplari - bu boshqaruv amaliyotida ob'yektiv qonunlardan foydalanish qobiliyatidir.

Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizlarga ega. O'zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo'lgan Amir Temur saltanatidek buyuk davlat:

- *ilmiylik;*
- *yakkahokimlik;*
- *iyerarxiya;*
- *bilimdonlik*
- *demokratiya*

kabi prinsiplar asosida boshqarilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolga erishishining asosiy yo'llari I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasida (23.02.95) quyidagicha yoritilgan (2.2-jadval).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari

№	Prinsiplar	Izoh
1.	Demokratiya	<ul style="list-style-type: none"> • insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi; • ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi; • barcha fuqarolarning teng huquqliligi; • davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; • davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi; • tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar.
2.	Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash	<ul style="list-style-type: none"> • monopollashgan iqtisodiyotdan erkin iqtisodiyotga; • sotsialistik musobaqadan erkin raqobatga; • qat'iy belgilangan narxlardan erkin narxlarga; • davlat mulkidan mulkchilikning turli shakllariga tayangan iqtisodiyotga o'tish.
3.	Yuksak ma'naviyat	<p>Mustaqillik tafakkurini kengroq tushunish, ya'ni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish; • o'zining va xalqining, vatanning qadru qimmatini, ornomusini anglab, uni himoya qilish; • yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir.
4.	Milliy xavfsizlikni ta'minlash	<ul style="list-style-type: none"> • respublikaning dunyo hamjamiyatiga kirish sur'atlarini tezlashtirish; • turli xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari, birinchi galda, BMT, NATO, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishlariga faol ishtirok etishni ta'minlash.

O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li Islom Karimovning bozor munosabatlariga o'tish yuzasidan olg'a surgan besh tamoyilga asoslanadi. Ularning mohiyati quyidagicha (2.3-jadval).

2.3-jadval

Beshta asosiy tamoyil

№	Tamoyillar	Tamoyillarning mohiyati
1.	Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi	* Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak. U biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak; ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqdan xoli qilish zarur.
2.	Davlat asosiy islohotchi	Davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar

		chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etish
3.	Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi	* Qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hечch istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi
4.	Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish	* Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.
5.	Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tib borish.	* Bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar" siz, ya'ni evalyusion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Qayd qilingan tamoyillar qatorida boshqarish quyidagi usullarga ham tayanadi:

“To'rt maqsad” usuli:

- *boshqaruv tartib qoidasi;*
- *iqtisodiy ishlab chiqarish;*
- *“nou-xau ”;*
- *ijtimoiy himoya.*

Shu to'rt maqsadga oid miqdoriy ko'rsatkichlar belgilanib, hamma resurslar shu maqsadga erishishga yo'naltiriladi.

“7-s” tamoyili. Korxonalar (firma) o'z oldiga qo'ygan iqtisodiy natijaga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borishni nazarda tutadi:

- *strategiya;*
- *struktura;*
- *tizim;*
- *xodimlar tarkibi;*
- *boshqaruv qoidasi;*
- *boshqaruv mahorati;*
- *yakuniy natijalar.*

Buning uchun, eng avvalo iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishni, ularga erishish uchun lozim darajadagi ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish, resurslar bilan ta'minlash, xodimlarni tanlash, o'qitish, boshqaruvda eng samarali usul va tajribalarni qo'llash lozim bo'ladi.

“Kaban” usuli yaponlarga tegishli bo'lib, boshqaruv ilmi tarixida eng samarali hisoblanadi. U ishlab chiqarishning uzluksiz harakatini ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydi. Shu bilan birga:

- *xodimlarni tanlash va ishga yollash mahoratini baholash;*
- *attestatsiyadan o'tkazish;*
- *o'qitish va malakasini oshirish;*
- *xodimlar oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yish;*

lavozimlarni almashtirib turish (rotatsiya) kabilar yapon menejmentining o'ziga xos xususiyatlaridandi.

Nazorat uchun savollar.

1. Qonun deganda nimani tushunasiz?
2. Umumiy falsafiy qonunlar qanday ifodalalnadi?
3. Iqtisodiy nazariya qonunlari qanday iqtisodiy kategoriyalardan foydalanadi?
4. Qonunlarni bilishning nima ahamiyati bor?
5. Jamiyat ehtiyojlarini mumkin qadar kam resurslar sarflab iloji boricha to'liq qondirish qonunini tushuntirib bering
6. Qiymat qonuni yoki narx qonunini izohlab bering
7. Talab qonuni va Taklif qonunlarini qanday tushunasiz?
8. Raqobat qonunining mohiyati nimada?
9. Iste'molchi nuqtai nazaridan eng so'nggi naflilik qonunining ma'nosi nima?
10. Tamoyil nima?
11. Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyilini tushuntiring.
12. Ilmiylik tamoyilining boshqaruvda o'rni qanday?
13. Rejalilik tamoyilining qanday ahamiyati bor?
14. Kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyilini qanday tushundingiz?

GLOSSARIY

(Mavzu: Menejment qonunlari va tamoyillari hamda ularni ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'llash)

Menejment / Менеджмент / Management - bu professional faoliyatning mustaqil ko'rinishi bo'lib, bozor sharoitida firmaning ixtiyoriy xo'jalik faoliyati natijasida moddiy va mehnat resurslardan unumli foydalanib mo'ljallangan maqsadga erishishdir.

Qonun / Закон / Law- bu ob'yektiv borliqda turli hodisalar kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo'lgan zaruriy bog'lanish, munosabat. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari, muvozanat qonunlari va h.k.

Tamoyil / Принцип / Principle - mayl, moyillik, tendensiya.

Umumiy falsafiy qonunlar / Общие экономические законы / General economic laws - materiya, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat, sabab, oqibat, shakl, mazmun kabi kategoriyalar vositasida ifodalanadi.

Iqtisodiy nazariya qonunlari / Законы экономической теории / Economic theory laws - iqtisodiy kategoriyalar vositasida (mulk, ishlab chiqarish, talab, taklif, taqsimt, ayirboshlash, qiymat, narx, foyda, tovar, pul, muvozanatlanish) foydalanadi.